

## **AQLI ZAIF O`QUVCHILARDA O`QISH VA YOZISHDAGI KAMCHILIKLAR.ULARNI BARTARAF ETISH**

*Toshkent viloyati Bo`stonliq tumani 125-yordamchi maktab – internati*

***Rasulova Xurshida Toirovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aqli zaif o`quvchilar haqida ,ularning o`qish va yozishdagi kamchiliklari haqida alohida to`xtalinib,bartaraf etish yo`llari borasidagi fikrlar aytib o`tiladi.

**Kalit so`zlar:** nutq, aqliy zaiflik, bolalar klinkasi, korreksion vazifalar, o`qish darslari, intermodal aloqalar.

Nutq faoliyatining eng murakkab shakllaridan biri - bog`lanishli nutq hisoblanadi.Yaratilgan matn mazmunini og`zaki va yozma bayon etish bog`lanishli matnning ko`rinishidir.Hayot esa bunday matn yaratish imkonini birdek barcha inson zotiga nasib qilavermaydi. Umri davomida nuqson bilan yashayotgan bolalar uchun ham davlat o`z mehribonliklarini ayamay ,barcha shart-sharoitlarni juada namunali va qoniqarli tartibda yaratib qo`ymoqda.Birinchi marta psixiatr F.Platter (1537- 1614 ) ruhiy kasalliklar orasidan aqli zaif bolalarni ajratib berdi.Aqli zaif bolalarni tasniflash ,ularga klinik tavsifnoma berish ishlari F.Pinel (1775 – 1838 ) , J. Eskirol (1772 – 1840 ) tomonidan bajarildi. J.Eskirol birinchi marta “aqli zaiflik “ atamasini fanga olib kirdi. Aqli zaif bola deganda bosh miyasining organik buzilishi natijasida bilish faoliyatlarining turg`un pasayishi tushuniladi.Aqli zaif bolalarni o`qitish , tarbiyalash va ularni o`rganishning nazariy masalalari qator fanlarning yutuqlariga asoslanadi.Aqli zaif bolalar ta`lim – tarbiyasi masalalari bilan shug`ullanish ishlari boshlanganiga 200 yildan oshgan bo`lsa-da , bir tizimda atroflicha ,bir butun ,tugallangan ishlar 20 asr boshlariga to`g`ri keladi.Kuzatish va qidiruv ishlarining uzoq muddatliligi,tajribalarning

sekin-asta to'planganligi ,ayrim nazariy xulosalarga kelish uchun uzoq vaqt talab qilinganligi sababli oligofrenopedagogika fanining izchil tarixi nisbatan qisqargan. Aqli zaif o'quvchilar ishtirok etadigan pedagogik jarayon oligofrenopedagogik bilan bog'liq. Bu holat nuqsonli bolaning ilk yoshidagi anatomik, fiziologik, ruhiy ma'lumotlarning zarurligini taqozo etadi. Ayniqsa , aqli zaiflikning sabablari, rivojlanishida bolalar klinikasiga oid materiallar talab etiladi. Bunday bolalarda asab kasalliklari, ruhiy kasallar, bolalar psixonevrologiyasi , aqli zaiflik klinikasi, genetika, maxsus psixologiya kabi ma'lumotlariga asoslanishi kerak. Bu ma'lumotlar aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasida , ularni hayotga tayyorlashda birmuncha samarali usul va vositalarni qidirib topishga yordam beradi. Olimlar tomonidan aqli zaif o'quvchilarning idrok, tafakkur, xotira, diqqat, nutq kabi psixologik xususiyatlari chuqur tadqiq etilib , o'rganilgan. Fazoviy buzilishlar aqli zaif bolalarda kuzatiladigan eng ko'p tarqalgan va eng ko'p uchraydigan nuqsonlardan biridir. T.N. Belovinning ta'kidlashicha, fazoni idrok etish har xil nuqsonli a'zolarining har xil intermodal aloqalariga asoslanadi. Fazoda komponentning to'liqligi ko'zga ta'sir etayotgan turli funksiyalarga bog'liq: uning o'tkirligiga, pertseptiv maydoniga, ko'z o'lchagichga va b.q. Chunki aqli zaif o'quvchilar bu darajaga to'liq yetgan bo'lmaydilar. Aqli zaif o'quvchilarga xos bo'lgan uyatchanlik va harakatlar koordinatsiyasining kamligi, bolaga nisbatan yaqinda turgan narsalar bilan ko'rib tanishishning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa aqli zaif bolalarda o'qish va yozishda kamchiliklar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Tadqiqotlarga qaraganda, aqli zaif bolalar xotirasi 11-12 yoshda biroz rivojlanar ekan. 13-14 yoshlarda esa aqli zaif bolalar mustaqil ravishda mantiqiy tushunchalardan foydalanishlari mumkin. 15 yoshlarda esa aqli zaif bolalar materialni eslab qolish qobiliyati normal bolalarga yaqinlasha boshlaydi. Bu shundan dalolat beradiki, aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan ishlar o'z vaqtida to'g'ri va aniq yo'lga qo'yilsa, bu ularning rivojlanishiga yordam beradi Yordamchi maktabda o'qish darslarida bolalarni to'g'ri, ongli, tez, ifodali

o'qishga o'rgatish, ovoz bilan ovozsiz o'qish, o'qilgan matn mazmunini o'qituvchining savollari yordamida, rasmlar asosida so'ngra mustaqil bayon etishga o'rgatish talab etiladi. O'qish uchun kichik matn, hikoyalar, sher, masal, maqol, o'zbek va chet el yozuvchilari asarlari, o'quvchilar ongiga mos keladigan ro'znoma va oynomalardan matnlar ishlatiladi. O'qishga o'rgatish jarayonida bolalar tarbiyalanadilar, ma'naviyati oshadi, ijobiy xislatlari, dunyoqarashi tarkib toradi, odob va axloqni o'rganadilar, ularning shaxsi shakllanib boradi. Yordamchi maktabda o'qish darslarining tarbiyaviy vazifasi-buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, tarkib tortirish, shakllantirish, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishini ta'minlash. Yordamchi maktabda o'qishga o'rgatish jarayonida aqli zaif bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar keng tarzda amalga oshiriladi. Bu ishlar bola nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatib borishdan iborat. Yordamchi maktabda o'qish darslarida o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlari tuzatib boriladi, bartaraf etiladi, ko'zga ko'rinmaydigan darajagacha yumshatib boriladi. To'laqonli o'qish malakalarini shakllantirish uchun bolani ongli, to'g'ri, tez va ifodali o'qishga o'rgatish talab etiladi. Yordamchi maktabda ushbu ta'limiy ishlar tarbiyaviy va korreksion vazifalarni bajarish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Yordamchi maktabda o'qish darslarining ta'limiy vazifasi quyidagilardan iborat: aqli zaif bolalar nutqini o'stirish, ongli, to'g'ri, tez, ifodali o'qishga o'rgatish; ovoz bilan va ovozsiz(ichda) o'qishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini avval o'qituvchining yordami bilan, rasmlar asosida so'ngra mustaqil bayon etishga o'rgatish. Matn mazmunini to'liq idrok etish, bayon qilish, uni qismlarga, sarlavxalarga bo'lish, sarlavxalarni nomlash, reja tuzish, reja asosida matn mazmunini izchillik bilan o'z so'zlari bilan gapirib berish, o'zbek va chet el adabiyoti bilan tanishtirish, asar qaxramonlarini bilish, salbiy va ijobiy obrazlarni ajrata olish. Bilamizki, aqli zaif bolalar bilan normal bola orasidagi farq ularning faol nutqlarida ko'zga tashlanar ekan. Aqli zaif bolalar o'z nutqlarida sifat, fe'l, bog'lovchilardan juda kam

foydalanar ekanlar. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar ko'pincha bir so'zdan iborat gaplarni qo'llaydilar. Bu "gap-so'zlarda" bayon etilayotgan fikr ajratilmagan bo'ladi. S.N.Rojdestvenskiyning ta'kidlashicha, "So'zdagi tovushlarni farqlamasdan, ularni ajratmasdan, bolalarni o'qish va yozishga keyinchalik to'g'ri yozishga o'rgatish mumkin emas". Aqli zaif bolalarda o'z kuchiga ishonch hosil qilmasdan turib, yordamchi maktablar o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erisha olmaydi. Ma'lumki, maktabgacha bo'lgan yoshdagi rivojlanish, erta yoshda kuzatiladigan rivojlanishning davomi hisoblanadi. 3 yoshda ma'lum o'sish sodir bo'lishiga qaramay, kelgusi rivojlanish ilgari erishilgan darajaga tayanadi. Shu bilan birga, bu yosh o'z xususiyatlari, o'z vazifalariga ega. Ularning ko'pchiligi ilk bor yuzaga keladi. Har qanday bola kamol topib sog'lom o'ssa, uning bilim faoliyati, sezgi qobiliyatlari mukammal rivojlanib borsa, bunday bolalar 6-7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinishga tayyor bo'ladi. Aqli zaif bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilgandan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shartlarning bo'lishi natijasida jismoniy va ruhiy, aqliy nuqsonlar kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday bolalarda eshitishda, ko'rish qobiliyatida, nutqiy va aqliy faoliyatida nuqsonlar paydo bo'ladi. Hozirgi vaqtda bunday bolalarni o'z sog'lom tengqurlari qatorida umumta'lim maktablarida o'qishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda, kamchiliklar bartaraf etilmoqda. Quyidagi ayrim nuqsonli o'quvchilarni umumta'lim maktablarida nimalarga e'tibor berishi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

### **I. Eshitishi zaif bolalarni yetarli savod olishlari uchun o'qituvchilar oldida quyidagi vazifalar turadi:**

- Qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalarni nutqidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida bilish kerak;

- Bolaning eshitish qobiliyati darajasini bilish maqsadida zarur bo'lsa davolash uchun mutaxassis otolorengolog huzuriga yuborish lozim.

- O'qituvchi sinf o'quvchilariga mavzuni tushuntirayotganda, diktant matnini o'qiyotganda o'quvchini mavzuni qanchalik fahmlaganiga e'tibor berishi kerak;

- Qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalarning ishini baholayotganda, xatolar sifatini tahlil qilganda, qulog'i yaxshi eshitmasligi tufayli xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, bahoni pasaytirmaslik kerak;

- O'qituvchi bolaning ota-onasiga bolaning o'qishda uchraydigan qiyinchiliklarining xususiyatlarini tushuntirish, o'quvchiga uy topshiriqlarini tayyorlashda qay tariqa to'g'ri yordam ko'rsatishi kerakligini o'qitish.

## **II. Nutqida kamchiligi bor o'quvchilar bilan ishlash**

*o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi zarur:*

- O'qituvchi noto'g'ri talaffuz qiladigan o'quvchilarga alohida e'tibor qilish, hamda logoped mutaxassislaridan maslahat olishlari kerak.

- Bolaning o'qish va yozishdagi xatolari uchun past baho qo'yib ranjitmaslik, uni ko'nglini og'ritmaslik, uning xulq atvoridagi ijobiy xislatlarga tayanish, unga qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin degan fikrni singdirish odamiylik belgisi hisoblanadi.

## **III. Ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining vazifasi**

- Agar sinfda ko'zi yaxshi ko'rmaydigan o'quvchi bo'lsa birinchi navbatda ota-onasiga murojaat qilib, uni ko'z vrachi mutaxassisga ko'rsatishni tavsiya qilish kerak.

- Ba'zida bolaning ota-onasi ko'zi ojizligini yashirishga harakat qiladilar. Oddiy maktab sharoitida ko'zga zo'r berish qanday oqibatlariga olib kelishini o'ylamaydilar. O'qituvchi bu tomonlarini ham ota-onalarga tushuntirib o'tishi lozim.

- Ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalarni o'z vaqtida aniqlamaslik, ularning ulgurmasligiga, so'ngra esa ta'lim-tarbiyadagi buzilishlarga olib kelibgina qolmay, balki busiz ham ko'zdagi nuqsonni yanada og'irlashtirib yuborishiga sabab bo'lishi mumkin.

- O'qituvchi sinfda ko'zi ojiz borligini nazarda tutgan holda bunday bolalar uchun alohida ko'rgazmalar tayyorlab, dars o'tishi lozim.

- Bolaning ko'rish qobiliyatini himoya qilish uchun ota-onalar bilan hamkorlikda ko'zoynak taqishni tashkillashtirish lozim.

#### **IV. Aqli zaif bolalar bilan ishlashda o'qituvchining vazifasi**

- Umumta'lim maktablarida o'qiyotgan aqli zaif bolalarni bilish faoliyati bilan sog'lom bolalar bilish faoliyatlarini farqlay bilish lozim.

- Sog'lom bolaga qo'yilgan o'quv-dastur talabini aqli zaif bolaga qo'llamaslik.

- Dars jarayonlarida aqli zaif bolalarni o'zlashtirish qobiliyatiga mos keladigan vazifalar berib boorish lozim.

- Bolani darslarni o'zlashtirmasligi uchun o'quvchilar o'rtasida izza qilmasdan, balki uning ayrim yutuqlarini hisobga olib rag'batlantirish choralarini ko'rish.

- Umumiy aqli zaif bolalarni umumta'lim maktablarida o'qitish ishi o'qituvchi oldida ancha murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda o'qituvchilarimiz ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ish olib borishi, bolalarini xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan dars jarayonida ish olib borish muhim ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda ,aqli zaif o'quvchilar bilan o'qish va yozishdagi kamchiliklarni bartaraf etish sog'lom bolalar qatori bunday bolalarning hayotga bo'lgan muhabbatini oshirish uchun xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1."Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda oila va maktab hamkorligi" Ilmiy-metodik to'plam, T-2013
- 2.“Praktikum po psixologii umstvenno otstalogo rebyonka”. M., 1985.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik, saylanma. Xalq merosi.1993.
4. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri” \ tuzuvchi Mahmudov M. – T.: Xalq merosi. 1993
- 5 Burlachuk L.S. Psixodiagnostika: Uchebnik dlya vuzov. SPb.: Piter, 2001.
6. D.A.Nurkeldiyeva, Ya.E.Chicherina "Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish" T-2014
7. D.A.Nurkeldiyeva, Z.I.Islambekova "Rivojlanishda nuqsoni bo`lgan bolalar diagnostikasi", T-2013